

## **MAMLAKTNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ VA BOJXONA TO'LOVLARINING AHAMIYATI**

**B.Kattakishiyev**

**Jizzax politexnika instituti dotsenti**

**U.Azamatov**

**Jizzax politexnika instituti, Kibersport fakulteti 532-22 guruh talabasi**

Soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqarning amal qilishi bu ob’ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug‘ullanish iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob’ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishni tabiiy zarurligi soliqlarni ob’ektiv amal qilishini zarur qilib qo‘yadi, vaholangki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi. Soliqarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi ob’ektiv majburiy to‘lov larga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, milliy daromadning bir qismi bo‘lgan pul mablag‘larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlar va bojxona to’lovlarining iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi ob’ektiv majburiy to‘lov larga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, milliy daromadning bir qismi bo‘lgan pul mablag‘larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to’lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliq va bojxona to’lovlardir. Soliq va bojxona tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat

tomonidan soliqlar va bojxona to'lovlari orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruva huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarini moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtida soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va boshqa hollarda bojxona to'lovlari to'lanadi. Bojxona kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi bojxona to'lovlari turlari amal qiladi:

- bojxona boji;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- bojxona yig'imlari

Qonun hujjatlarida boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin. Bojxona bojlarining va soliqlarning stavkalari har yili moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Boj tarifi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tizimlashtirilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalarining jamlanmasidir.

Bojxona to'lovlari to'lovchilar quyidagilardan iborat:

- deklarant;
- bojxona brokeri, agar deklarant bilan tuzilgan shartnomada bu nazarda tutilgan bo'lsa;

- bojxona omborining, erkin omborning, boj olinmaydigan savdo do‘konining egasi, tashuvchi, ular tomonidan bojxona rejimlarining qo‘llanilish talablari va shartlariga amal qilinmaganda;
- xalqaro pochta va kur’erlik jo‘natmalarining pochta aloqasi operatorlari va provayderlari, basharti bojxona nazorati ostida bo‘lgan xalqaro pochta va kur’erlik jo‘natmalari yo‘qolsa yoki bojxona nazoratisiz berilsa.

Bojxona kodeksiga muvofiq har qanday manfaatdor shaxs to‘lovchi uchun bojxona to‘lovlarini to‘lashga haqli.

Tarif preferensiyalari bojxona bojlarini to‘lashdan ozod etish, bojxona bojlari stavgalarini kamaytirish yoki muayyan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni bojxona hududiga preferensial olib kirish yoki ushbu hududdan preferentsial olib chiqishda kvotalar belgilash tarzida beriladi.

Davlat byudjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo‘lib, davlatning funksiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Byudjet so‘zi g‘azna ma’nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qo‘lida markazlashtirilgan pul jamg‘armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat byudjeti moliya tizimi hamda davlat moliya bo‘g‘inining asosiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksiga asosan davlat budgetiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Davlat budgeti - davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjetlar-hududiy moliyaning asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari, asosan, mahalliy soliqlar va yig‘imlar, soliqsiz daromadlar, yuqori turuvchi byudjet tashkilotidan olinadigan ajratmalardan tashkil topadi.

Davlat byudjetining harakat qilish mexanizmi ikki ko‘rsatkichda bo‘ladi:

1. Davlat budgetining daromadlari.
2. Davlat budgetining harajatlari.

Daromadlar – bu davlatning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatishi uchun moliyaviy baza hisoblanadi. Davlat byudjeti har yili ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning shartli ravishda quyidagicha guruhash mumkin:

- ✓ Soliqlar va soliqlarga tenglashtiriluvchi majburiy to‘lovlar;

- ✓ Davlat multkini xususiy lashtirishdan keladigan daromadlar;
- ✓ Davlat zayomlari;
- ✓ Qog‘oz pullar emissiyasi va boshqalar.

Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo‘lib soliq va bojxona to’lovleri hisoblanadi. Soliqlar va bojxona to’lovleri asosan fiskal, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyatga ega. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish soliqlarning fiskal funksiyasini kasb etsa, ayrim tarmoqlar rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar beriladi va kam daromadli aholining soliqlardan ozod etish, ularni davlat tonmonidan moliyalashtirish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi.

Hozirgi sharoitda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali manbai bo‘lib soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to’lovlar hisoblanadi. Yuqorida respublikamizda davlat byudjeti ikki pog‘onadan iborat ekanligiga to‘xtalgan edik. Ularning har biriga muayyan daromad manbalari biriktirilgan. Jumladan, respublika budjeti daromadlari umumdavlat soliqlari, yig‘imlari, bojlari, majburiy to’lovlar va boshqa to’lovlar hisobiga shakllantirilsa, mahalliy budgetlar daromadlari mahalliy soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to’lovlar hisobiga shakllantiriladi.

1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi va 1998 yil 1- yanvardan kuchga kirdi. Ushbu kodeks soliqlar va yig‘imlarni yagona hujjatga to‘pladi, umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig‘imlarning aniq turlarini belgiladi. Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksini keltirib o‘tishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Vahobov A.V, Jo’raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 68- bet.
2. E.Gadoev Foyda solig’i – Toshkent “Norma” nashriyoti 2011 y. 228 bet
3. E.Gadoev Bilvosita soliqlar – Toshkent “Norma” nashriyoti 2010 yil. 160 bet
4. Malikov T. S “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari” Akademiya T.,2002 – Toshkent. 68-89 betlar.
5. O‘rmonov J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. –T.: Dizain print. 2007. – 202 b.